

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XUDAYAROVA ZAYNAB RAJABOVNA

O‘ZBEK MILLIY MUSIQALI TEATR AKTYORINING SHAKLLANISHIDA
XALQ BADIY IJODIYOTINING O‘RNI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Xudayarova Zaynab Rajabovna

O'zbek milliy musiqali teatr aktyorining shakllanishida xalq badiiy
ijodiyotining o'rni 3

Худаярова Зайнаб Ражабовна

Роль народного творчества в становлении актера узбекского
национального музыкального театра 19

Khudayarova Zaynab Rajabovna

The role of folk art in the formation of the Uzbek national musical
theater actor..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XUDAYAROVA ZAYNAB RAJABOVNA

O‘ZBEK MILLIY MUSIQALI TEATR AKTYORINING SHAKLLANISHIDA
XALQ BADIY IJODIYOTINING O‘RNI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2021.3.PhD/San151 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda "Ziynet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiboyeva Oltinoy Qosimovna
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmetjanova Muqaddas Vahobovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Abdurasulov Shoxrux Abdinaimovich
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 14-iyun soat 10⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (26 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30-may kuni tarqatildi.
(2025-yil 30-maydagi 10-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon teatr san'atida aktyor ijodidagi ulkan salohiyat, uslubiy rang-baranglik, yuksak texnika, ko'p qirralilik xususiyatiga talab ortib bormoqda. Aktyorlik san'atida xalq badiiy madaniyatidan ilhom, ijod, ibrat manbai sifatida foydalanish hamda zamonaviy sahna talablariga muvofiqlashtirish ijro texnikasi takomiliga xizmat qilmoqda. Yuksak badiiyat mezonlariga asoslangan ijrochilik mahoratida kechinma san'ati qonuniyatlari bilan bir qatorda, xalq tomosha madaniyati, an'anaviy teatr vositalarini aktyorlik san'atiga uyg'unlashtirish hamda shu tariqa badiiy an'analarni boyitish endilikda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon teatrshunosligida aktyorlik san'atining xalq badiiy madaniyatidan oziqlanishi, sinkretiklik xususiyati, tasviriy va badiiy ifoda vositalari ko'lam bilan bog'liq masalalar tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlarda aktyorlik san'atining zamonaviy holati, ijodiy sintez, sinkretiklik, ijro texnikasini oshirish, shu bilan birga, milliylik, lokal sifatlar, ijrochilik an'analari vorisiylik masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Aktyor ijrochiligida universal ijodkorlikning o'rni, milliy maktab uslublari, zamonaviy tendensiyalar xususiyatlari, musiqali drama teatri aktyorligi genezisi bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish soha mutaxassislari oldidagi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda o'zbek teatrshunosligida milliy musiqali drama san'ati jahon teatr madaniyatining o'ziga xos bir bo'lagi sifatida zamonaviy sahna badiiy jarayonlari bilan hamnafaslikda rivojlanib kelishi, ijro yo'llari hamda ifoda vositalarini xalq ijodiyotining badiiy unsurlari bilan yanada takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda. "Avvalo, milliy madaniyatimiz va san'atimizda xalqchilik tamoyillarini yanada oshirish, uni tom ma'noda el-yurtimizning qalbi va yuragini ifoda etadigan, yuksak xalqaro mezon va talablarga javob beradigan sohaga aylantirish – eng muhim vazifadir"¹. Bu esa bugungi globallashtirish sharoitida teatrning o'ziga xos qiyofasini saqlab qolish, milliy musiqali teatr aktyorligi san'ati nazariyasida avlodlar almashinuvi va vorisiylik, uslubiy rang-baranglik masalalari bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish dolzarbligini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston madaniyat va san'at sohasi xodimlariga tabrik / – Toshkent: Xalq so'zi, 2022-yil 16-aprel.

qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mavzuni tadqiq etishda respublika olimlari ishlari bilan birgalikda xorijda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlardan ham keng foydalanildi. Musiqali teatr ildizlari, aktyorlik san'ati xususiyatlari, teatrning xalq badiiy madaniyati an'analari bilan bog'liqligi masalalari jahon va rus teatrshunoslari, madaniyatshunos, folklorshunos, dinshunos mutaxassislar tadqiqotlarida yoritilgan. Jumladan, xorij tadqiqotlarida teatr san'ati ildizlarining folklor bilan bog'liqligi bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, R.Bart, J.Frezer, J.Kempbell, E.Taylor² asarlarida xalq badiiy madaniyati va undagi ijodkorlik masalalari o'rganilgan.

MDH davlatlarida ham teatr san'ati va xalq badiiy ijodiyoti munosabatlariga doir qator tadqiqotlar olib borilgan. Aktyorlik san'atining nazariy asoslari M.Baxtin, M.Knebel, V.Nemirovich-Danchenko, K.Stanislavskiy, M.Chexov, A.Veselovskiy, V.Jirmunskiy, V.Propp³ kabi nazariyotchi va amaliyotchi mutaxassislar ishlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, N.Nurjonov B.Kundakbayev, S.Kabdiyeva, J.Qulmambetov, L.Farzutdinova, L.Shayeva⁴ kabi olimlarning ilmiy ishlarida tojik, qozoq, qirg'iz, boshqird, moldavan kabi qardosh xalqlar teatrlarida aktyorlik san'atining milliy badiiy madaniyat bilan mustahkam aloqalari o'z aksini topgan. Tadqiqotning yaratilishida mazkur ishlar o'rganildi, dissertatsiya va avtoreferatlar bilan tanishildi.

² Барт Р. Семиотика. Поэтика. Структурализм как деятельность. – Москва: Прогресс, 1989. – 618 с.; Фрезер Д. Фольклор в ветхом завете. – Москва: АСТ, 2003. – 542 с.; Кэмпбелл Дж. Тысячеликий герой. пер. с англ. О.Ю.Чекчурина. СПб.: ООО Издательство «Питер», 2016. – 347 с.; Тайлор Э.Б. Первобытная культура / Перевод с английского Д.А.Коропчевского. – Москва: Политиздат, 1989. – 576 с.

³ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, – 1986. – 444 с.; Кнебель М.О. Слова в творчестве актера. – Москва: Всерос театр, 1970. – 160 с.; Немирович-Данченко В.И. О творчестве актера. – Москва: Издательство Искусство, 1984. – 624 с.; Станиславский К.С. Работа актёра над собой. – Москва: Искусство, 1985. – 480 с.; Чехов М.А. О технике актера. – Москва: АСТ, 2018. – 288 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: Наука, 1989. – 408 с.; Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – 518 с.; Пропп В.Я. Русский героический эпос. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1955. – 636 с.

⁴ Нурджанов Н. Х. Традиционный театр таджиков: в 2 т. – Душанбе: Мир путешествий, 2002. – Т.1. – 372 с.; Кундакбаев Б.К. Путь театра. (Каз. Акад. театру драмы им. М. Ауэзова - 50 лет) / – Алма-Ата: Жалын, 1976. – 261 с.; Кабдиева С.Д. Фольклорные традиции в казахском театре. – Алма-Ата : Онер, 1986. – 109 с.; Кулмамбетов Ж.О. Кыргыз театры. Монография. – Бишкек: Бийиктик, 2023. – 536 б.; Фарзутдинова Л.С. Фольклорные традиции в становлении башкирского театра. Автореф. дисс. на соискание канд. искусс. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 22 с.; Шайева Л.А. Реконструкция и актуализация этнокультурной идентичности средствами национального театра: на примере молдавского театра. Автореф. дисс. культур. наук – Москва, 2010. – 22 с.

O'zbek musiqali teatri va aktyorlik san'ati masalalari, xalq badiiy ijodkorligi hamda teatr san'ati munosabatlari M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, S.Tursunboyev, M.To'lxo'jayeva, M.Hamidova, S.Qodirova, O.Tojiboyeva, O.Kaydalova, H.Ikromov, O.Rizayev, K.Ahmedova, A.Jabborov, N.Sobirova, T.Abdurahimov, B.Sangirov, M.Isoqova⁵ ishlarida o'rganilgan. Folklor san'ati, qolaversa, o'zbek xalq badiiy ijodiyoti masalalari folklorshunos X.Zarifov, T.Mirzayev, H.Razzoqov, O.Sobirov, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov⁶ kabi olimlar ishlarida tadqiq qilingan. Yaratilgan ilmiy ishlar mavzuni yoritish uchun muhim tayanch xizmatini o'tashi bilan birga, o'zbek milliy musiqali teatr aktyorining shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining o'rni, ahamiyati, ijodiy izlanishlaridagi yangiliklar, istiqbol masalalari yaxlit holda, fundamental asosda alohida tadqiqot tarzida o'rganilmaganini qayd etish lozim.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A1-081-raqamli "XX–XXI asr boshlarida o'zbek xalqi san'atidagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy tahlil)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek milliy musiqali drama aktyorlik san'ati shakllanishida xalq badiiy ijodkorligining o'rni, roli va ahamiyati masalalarini an'analar va yangi tamoyillar kontekstida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek milliy musiqali dramasi xususiyatlarini belgilash;

musiqali dramada aktyor ijrochiligi san'atining yetakchi sifatlarini tavsiflash;

xalq badiiy madaniyatidagi ijrochilik va ijodkorlik sifatlarini aniqlash;

⁵ Rahmonov M.R. O'zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975. – 285 b.; Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi. Birinchi kitob (1914–1960-yillar). – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 328 b.; Qodirov M.X. O'zbek teatri an'analari – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – 421 b.; Sehr va mehr. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 152 b.; O'zbek an'anaviy teatri. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. – 448 b.; Tursunov T.T. XX asr o'zbek teatr tarixi (1900–2007). – Toshkent: Art Press, 2010. – 568 b.; Tursunboyev S.T. Andijon teatri (tarixiy ocherk). – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. – 144 b.; Туляходжаева М.Т., Юлдашев Т.И. Узбекская драматургия на сцене театра (60-80-е годы). – Ташкент: Издательство Фан, 1990. – 136 с.; Хамидова М.А. Актерское искусство узбекской музыкальной драмы. – Ташкент: Издательство Фан, 1987. – 148 с.; Qodirova S.M. Komediya san'ati tarixi. Monografiya. – Toshkent: San'at jurnali, 2008. – 212 b.; Tojiboyeva O.Q. Epos va teatr. Birinchi kitob. – Toshkent: San'at jurnali, 2015. – 240 b.; Кайдалова О.Н. Традиции и современность: Театральное искусство Средней Азии и Казахстана. – Москва: Искусство, 1977. – 296 с.; Ikromov H.I. Davr va teatr. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 240 b.; Rizayev O.Z. Nabi Rahimov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. – 104 b.; Ahmedova K. Узбекская музыкальная драма (Музыкальная драматургия жанра). Автореф. дисс. канд. искусств. – Ташкент, 1971. – 20 с.; Jabborov A.H. Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. – 188 b.; Sobirova N.E. Xorazm baxshichilik va xalfachilik an'analari. Fil. fan. dokt. diss. – Urganch, 2021. – 247 b.; Abdurahimov T.A. O'zbek dramaturgiyasining shakllanishi va taraqqiyotida folklorning o'rni. Fil. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1995. – 167 b.; Sangirov B.Y. O'zbek teatrida etnomadaniy an'analar talqini. San.fan.fal.dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 160 b.; Isoqova M.K. Xorazm etnomadaniyati va Yevropa rusumidagi teatrning rivojlanishi. San. fan. fal. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2024. – 140 b.

⁶ Zarifov X.T. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 1-jild. – Toshkent, 2015 – 555 b.; Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – 151 b.; Razzoqov H. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 360 b.; Sobirov O. O'zbek sovet folklori ocherki (1941–1965). – Toshkent: Fan, 1971 – 200 b.; Jo'rayev M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006 – 183 b.; Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O'zbekiston, 2012 – 96 b.

xalq badiiy ijodiyoti namunalarining musiqali teatr san'atiga ta'sirini baholash;
o'zbek milliy musiqali teatr aktyori ijrosida xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarining uyg'unlashuv jarayonini tadqiq etish;

o'zbek musiqali teatr aktyorini tarbiyalash va o'qitish an'alarining o'ziga xosligini aniqlash;

bugungi kun o'zbek milliy musiqali teatr aktyorini shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining ahamiyati borasida takliflar ishlab chiqarish.

Tadqiqotning obyekti sifatida musiqali drama aktyorligida ijro an'alarining shakllanishi, badiiy vositalarining yuzaga kelishida ahamiyatli bo'lgan spektakllar belgilandi.

Tadqiqotning predmetini xalq poetik ijodkorligidagi teatr zaxiralari, xalq ijodkorlarining yetakchi xususiyatlari, musiqali drama aktyorligi badiiy an'alari, zamonaviy musiqali drama aktyorligida an'alarga vorisiylik, yangi usul, uslub va vositalarning qo'llanishi masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy san'atshunoslik ilmining retrospektiv, tarixiy-qiyosiy, faktologik, tasnifiy, germeneytik, tipologik, kompleks yondashuv, suhbat, intervyu kabi usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek xalq badiiy poetik ijodi hamda og'zaki teatri shaklan musiqali drama san'ati bilan ifoda vositalari ko'lami, ijrochilik yo'llari, uslubiy sifatlariga ko'ra yaqinligi, an'alar mazmunidagi xalq badiiy ijodkorligi hamda ijrochilik uyg'unligi zamonaviy musiqali drama teatri aktyorligi takomilida ustuvor ahamiyat kasb etishi asoslangan;

an'anaviy teatrning xalfalik, qiziqchilik, masxarabozlik turlaridagi teatr zaxirasi Onajon Sobirova, Onabibi Otajonova (Ojiza), Sultonposhsha Rahimova, Onabibi Ochilova, Bibijon Iskandarova kabi xalfa va xalfa-aktyorlar, Abror Hidoyatov, Maryam Yoqubova, Soyib Xo'jayev, Qalandar Boyjonov, Otamurod Bobojonov kabi xalq ijodkorligidan yetishib chiqqan sahna ustalari ijodi misolida tadqiq etilib, ulardagi sinkretizm, badihago'ylik, quvvayi hofiza, kinesika vositalaridan foydalanish, kechinma san'ati bilan uyg'unlashuv, uslubiy rang-baranglik, san'atlararo o'zaro ta'sirlanish va diffuziya jarayonlari o'zbek musiqali drama aktyorligi shakllanishida ahamiyat kasb etganligi isbotlangan;

1940-yillarning oxiri – 1950-yillarda to'liq shakllangan o'zbek aktyorlik san'ati maktabi va undagi uch asosiy – *qahramonona-romantik*, *lirik-poetik* va *xarakterli-komedik* yo'nalishlar shakllanishida xalq poetik ijodkorligidan ta'sirlanish hamda kechinma san'ati qonuniyatlariga tayanish ustuvor o'rin tutganligi aniqlangan;

o'zbek musiqali drama teatri aktyorligi istiqboli milliy qadriyatlarga asoslangan mumtoz spektakllarga e'tiborni kuchaytirish, dramatik ijroda sinkretizm, mahobatli talqin, so'z qudratini oshirish, vokalda esa milliy ohangni *titratma*, *qochirim*, *nola* kabi ijro usullarida takomillashtirish hamda zamonaviy teatr san'atining ilg'or uslub va vositalari bilan uyg'unlashishga bog'liq ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy va professional ta'lim muassasalari musiqali drama aktyorligi ixtisosligi uchun "Yakkaxon qo'shiqchilik" o'quv qo'llanmasi yaratilgan;

musiqali drama aktyorlari o'qitishning didaktik-metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

professional teatrlarda badiiy yaxlitlikni ta'minlash uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan xulosalarning jahon teatrshunosligi va madaniyatshunosligida o'z isbotini topgan ilmiy metodlar va nazariy yondashuvlar qo'llanilganligi, ijodiy jarayonlarni kuzatish natijalariga asoslanganligi, tarixiy va zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan spektakllarning tahliliga tayanilganligi, shu bilan bir qatorda mavjud arxiv materiallari, ijodkorlarning esdaliklaridan foydalanilganligi va ular asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishdagi tahliliy ma'lumotlar, uslubiy metodologiya, yakuniy xulosalar musiqali teatr aktyorligi san'atida xalq ijodiyotining o'rni va istiqbolini o'rganishga qaratilgan o'quv qo'llanmalar, darslik va monografiyalar yaratish, teatr san'ati tarixi, rejissyorlik, aktyorlik mahorati kurslarini o'qitishda manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati – asosiy xulosalar musiqali drama yo'nalishida zamonaviy teatr san'ati hamda xalq badiiy madaniyati vositalari, milliy ohanglardagi vokal va dramatik mahorat hamda serqirra ijodkorlik sifatlarini puxta o'zlashtirgan yuksak malakali aktyorlar tayyorlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek milliy musiqali teatr aktyorining shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining o'rnini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek xalq badiiy poetik ijodi hamda og'zaki teatri shaklan musiqali drama san'ati bilan ifoda vositalari ko'lam, ijrochilik yo'llari, uslubiy sifatlariga ko'ra yaqinligi, an'analar mazmunidagi xalq badiiy ijodkorligi hamda ijrochilik uyg'unligi zamonaviy musiqali drama teatri aktyorligi takomilida ustuvor ahamiyat kasb etishini isbotlovchi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi teatrlar faoliyatini kompleks o'rganishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 1-maydagi 02-12-05-339-son ma'lumotnomasi). Natijada, teatr san'atidagi tashkiliy-ijodiy jarayonlarda milliy meros ahamiyatini oshirish, repertuar tanlash, mavzular ko'lamiga doir tushuncha va tasavvurlarni kengaytirishga muvaffaq bo'lingan;

an'anaviy teatrning xalfalik, qiziqchilik, masxarabozlik turlaridagi teatr zaxirasi Onajon Sobirova, Onabibi Otajonova (Ojiza), Sultonposhsha Rahimova, Onabibi Ochilova, Bibijon Iskandarova kabi xalfa va xalfa-aktyorlar, Abror Hidoyatov, Maryam Yoqubova, Soyib Xo'jaev, Qalandar Boyjonov, Otamurod Bobojonov kabi xalq ijodkorligidan yetishib chiqqan sahna ustalari ijodi misolida tadqiq etilib, ulardagi sinkretizm, badihago'ylik, quvvayi hofiza, kinesika vositalaridan foydalanish, kechinma san'ati bilan uyg'unlashuv, uslubiy rang-baranglik, san'atlararo o'zaro ta'sirlanish va diffuziya jarayonlari o'zbek musiqali drama aktyorligi shakllanishi isbotlangan ilmiy xulosalardan "Mahalla" telekanalida efirga uzatilgan "O'shal damlar", "Xushvaqt", "Shoh Life" kabi teatr arboblari ijodini

yoritgan ko'rsatuvlar ssenariysini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali DUKning 2024-yil 22-oktabrdagi 01-15-616-son ma'lumotnomasi). Natijada, muhim faktik ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatuvlar orqali teatr san'ati va yirik san'atkorlar faoliyati keng targ'ib etilgan;

1940-yillarning oxiri – 1950-yillarda to'liq shakllangan o'zbek aktyorlik san'ati maktabi va undagi uch asosiy – qahramonona-romantik, lirik-poetik va xarakterli-komedik yo'nalishlar shakllanishida xalq poetik ijodkorligidan ta'sirlanish hamda kechinma san'ati qonuniyatlariga tayanish ustuvor o'rin tutganligi aniqlanganini tasdiqlovchi ilmiy xulosalardan "Ochiq namoyish", "Telexiyobon" ko'rsatuvlari ssenariylarini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DUKning 2024-yil 27-apreldagi 02-40-1011-son ma'lumotnomasi). Natijada, spektakl tahlili, obraz ustida ishlash, teatr aktyorligi san'ati borasidagi yangi manbalar vositasida tomoshabinlar estetik didiga ta'sir ko'rsatishga erishilgan;

o'zbek musiqali drama teatri aktyorligi istiqboli milliy qadriyatlarga asoslangan mumtoz spektakllarga e'tiborni kuchaytirish, dramatik ijroda sinkretizm, mahobatli talqin, so'z qudratini oshirish, vokalda esa milliy ohangni titratma, qochirim, nola kabi ijro usullarida takomillashtirish hamda zamonaviy teatr san'atining ilg'or uslub va vositalarini uyg'unlashishiga bog'liq ekanligi haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi teatrlar ijodiy jarayonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 1-maydagi 02-12-05-339-son ma'lumotnomasi). Natijada, teatrdagi spektakllar sahnalashtirish amaliyotini nazariya bilan uyg'unligini ta'minlash, aktyorlik izlanishlarida badiiy an'analarga vorisiylik asoslarini yanada mustahkamlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy maqola, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ochib berilgan, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi bayon etilgan, dissertatsiya natijalarining aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi hamda tadqiqot ishining tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'zbek musiqali drama san'ati va xalq badiiy ijodkorligi”** deb nomlanib, “Musiqali drama va ijrochilik san'atining tarixiy-nazariy aspekti” hamda “Xalq ijodkorligida musiqali drama elementlari (xalfalar san'ati misolida)” bo'limlariga bo'lingan. Mazkur bobda mahoratli xalq ijodkorlarining uslubiy o'ziga xosliklari professional musiqali drama aktyorligi yo'nalishi shakllanishida ahamiyat kasb etganligi va bunda ijro shakli, vositalari, uslublar, elementlar, xususiyatlarni sahna san'atiga uyg'unlashtirish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Bobning **“Musiqali drama va ijrochilik san'atining tarixiy-nazariy aspekti”** nomli birinchi bo'limida musiqali drama va undagi aktyorlik san'atining shakllanishi, xalq hayoti, madaniyati, an'analari, psixologiyasi, o'ziga xos badiiy ijodiyoti bilan bevosita bog'liqligi yoritilgan.

XX asrda Yevropacha rusumdagi professional teatrning Turkistonga kirib kelishi tomosha san'atlari tizimida katta islohotlarni yuzaga keltirdi. Mazkur turning mahalliy xalq madaniyatiga singdirishda milliy an'analari, tomoshalar, udumlar, folklor namunalari katta o'rin tutdi.

Abdulla Avloniy, Hamza, Uyg'ur truppalari yevropacha teatr yo'nalishiga asos solarkan, o'zbek teatri estetik talablari, poetikasi, xususiyatlari yuzasidan izlanishlar vujudga keldi. Milliy teatrning yetakchi xususiyati sifatida kuylash, aktyorlik, raqs, musiqa ijrochiligi an'analari namoyon bo'ldi. Musiqa deyarli barcha musiqiy va musiqiy bo'lmagan spektakllarda qo'llanildi. Tomoshalarda aktyorlar uchun tayyorlangan sahnaning bir chetida musiqachilar o'tirar edi. Borgan sari musiqa syujet ifodasida, qahramonlar xarakterini ochishda katta rol o'ynay boshladi. Ilk postanovkalarda adabiy matn, musiqa, aktyor ijrosi, qo'shiq, raqs, sahna harakati, sahna nutqi, ssenografiya singari badiiy ifoda vositalari intuitiv darajada kechdi.

O'zbek musiqali dramasi va aktyorlik san'ati shakllanishida Mannon Uyg'ur ijodi alohida ahamiyat kasb etdi. Zero, ilk bor “Layli va Majnun” operasidan ta'sirlangan Uyg'ur o'z ijodida sintetizmga alohida e'tibor qaratgan. Buning boisi sof dramatik spektakllarga nisbatan, musiqali dramani milliy xususiyatlarga mushtarakligi, kuy-qo'shiq bilan bezatilgan tomoshalar kishilar ko'ngliga yaqinligi bilan bog'liq edi. Uyg'urning xalq badiiy madaniyatini puxta bilishi, yevropacha sahna qonuniyatlarini o'zlashtirgani, ulardagi uslub va vositalarga tayanishi hamda har ikki shaklni o'zaro muvofiqlashtirish mahorati diqqatga molik sahna asarlarini yuzaga keltirdi.

O'zbek aktyorlik san'ati, jumladan, musiqali drama aktyorligining vujudga kelishida 1924–1927-yillarda Moskva hamda Boku shaharlarida rol va pyesa ustida ishlash texnikasini o'zlashtirish ahamiyatli bo'ldi. Ayniqsa, Bokudagi ta'lim musiqali

dramani o'zlashtirish borasida yetakchi o'rin tutdi. Aktyorlardan Halima Nosirova, Zuhur Qobulovlarning Ozarbayjon pedagoglari hamda san'at ustalaridan musiqali drama xususiyatlarini o'rganganligi ularning ishlarida o'z samarasini berdi. 1926-yilda M.Qoriyoqubov tomonidan tashkil qilingan "O'zbek davlat konsert-etnografik truppasi" milliy musiqali teatr yaratish borasidagi dadil qadam edi. Ushbu truppaning repertuari musiqiy folklor hamda Hamza yaratgan qo'shiq va laparlardan iborat bo'ldi. Dissertatsiyada mazkur masala bir qator ijod namunalari asosida ochib berilgan.

Bobning **"Xalq ijodkorligida musiqali drama elementlari (xalfalar san'ati misolida)"** deb nomlangan ikkinchi bo'limi mazkur san'atning musiqali drama turiga yaqinlik jihatlari, zamonaviy aktyor ijodi uchun ahamiyatli bo'lgan xususiyatlariga to'xtalib o'tiladi. Xususan, xalfaning musiqali drama aktyoriga o'xshagan universallik jihati, ham kuylashi, ham rol ijro etishi, ham soz chalishi, so'z mahorati, topqirlik, quvvayi hofizasi, ham ijro davomida turli vositalarni qo'llashi ko'rib chiqildi.

Xalfalar san'atning sozandalik, xonandalik, shoiralik, bastakorlik, raqs va hazil-mutoyiba turlarini puxta o'zlashtirib, ularni uyg'unlashtirgan holda ijro etganlar. Asosida musiqa, qo'shiq, raqs elementlari yotgan xalfalar san'ati o'ziga xos teatr deb qaralsa, uni to'g'ridan-to'g'ri musiqali dramaga qiyoslash mumkin. Bunday tafovut yevropacha professional teatr vositalari hamda an'anaviy teatr shakli o'rtasida kechadi. M.Qodirov xalfalar san'ati haqida fikr yuritib, ularni ikki toifaga ajratgan: "1) to'ylar va marosimlarda she'rxonlik, g'azalxonlik qilib, diniy mavzudagi ba'zi qissa va dostonlarni hikoya qilib, kuylab, marhumlarni eslab, kitob o'qib talqin qiluvchilar; 2) soz chalib, qo'shiq aytib, raqsga tushib, tomosha ko'rsatuvchi xalfalar"⁷. Ko'rinib turibdiki, har ikki guruhdagi xalfaning o'ziga xos xususiyatlari so'z mahorati, topqirlik, xuddi aktyordek plastikaga ega bo'lish, quvvayi hofiza, ya'ni ko'plab g'azal va she'rlarni yoddan bilish kabilardan iborat. M.Qodirov ajratgan ushbu tasnif ham xalfalik san'atini musiqali dramaga yaqinligini ko'rsatadi.

J.Qobulniyozovning aniqlashicha, "Qadimda xalfalar musiqa asboblari jo'rligisiz, faqat doyra chalib yoki piyolalarni bir-biriga urishtirib, ayrimlari esa barmoqlariga angishvona kiyib, likopcha chertgan holda kuylab kelishgan"⁸. Asta-sekin xalfalar san'ati adabiy va musiqiy jihatdan takomillashib borib, jo'rnavoz musiqa asbobiga ehtiyoj sezila boshlagan. XIX asr oxirlarida Xorazm san'atiga kirib kelgan, garmon sozi ana shu ehtiyojni qondirdi. Garmon sozi doyrachi hamda raqqosani xatti-harakatlarini bir maromda ushlab, holatga kirishiga yordam bergan.

An'anaga ko'ra to'y marosimlari, yig'inlarda xizmat qiluvchi xalfalar guruhi 3 kishidan iborat ansambl ko'rinishida namoyon bo'lgan. Bular, asosan, ijrochi xalfa, ya'ni guruh rahbari, unga doyrada jo'r bo'luvchi sherigi va raqqosadan iborat. Yevropacha teatrdagi xoreografiya musiqali dramaning plastik ifoda vositasi bo'lib xizmat qilsa, xalfa ijodkorligida ham uning funksiyasi shu tariqa kechadi. Xalfa ijodida raqs ijro jarayonidagi dramatizmni kuchaytirish, ziddiyatlarni yaratish vositasi sifatida ham qo'llanadi. Xorazm xalfachiligida yallabop qo'shiqlar yangrashi bilan raqqosa o'rnidan turib, o'tirganlarga ta'zim qilar ekan, asta-sekin xirom eta boshlaydi. Raqqosa

⁷ Qodirov M. O'zbek an'anaviy teatri. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B.143.

⁸ Qobulniyozov J. Xorazm xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1965. – B. 25.

har bir harakatini kuylanayotgan qo'shiq so'zlariga mos tarzda olib borishga intilib, ba'zan o'tirganlarni ham o'yinga chorlaydi.

Agarda to'yga ikki guruh xalfalar tashrif buyurishgan bo'lsa, aytishuvlarga o'tiladi. Bu aytishuvlar teatr sahnasidagi dialogni yodga soladi. Zero, aytishuvda tomonlarning o'zaro kuch sinashi aks etadi. Xalfalar aytishuvi davom etar ekan, o'rtada o'ynayotgan raqqosa aytimlardagi so'zlarga nishon bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan ham xalfalarning har ikkala guruhi ijro paytida raqqosa bilan muloqotga kirishadi, bunda so'zlar imo-ishoralar, ko'z qarashlar, mimikalar vositasida yetkaziladi. Bu o'ziga xos ijodiy bellashuvda beixtiyor tomoshabinlar ham ikki guruhga bo'linib, kirishib ketganlarini sezmay qoladilar. Mazkur jarayonni teatrdagi to'rtinchi devorning buzilishi holatiga o'xshatish mumkin.

Xorazm to'y marosimlari xalfalar ijodining asosiy mavzusiga aylangan. Nikoh to'yi, beshik to'yi, sunnat to'yi marosimlari bilan bog'liq repertuar shakllangan bo'lib, ular bir-biridan farqli matnga hamda ijro xususiyatlariga ega bo'lib, odatda barchasi teatrlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Tadqiqotda "Nikoh to'yi" marosimining tarkibiy qismlaridagi dramaturgik qurilish mahoratli xalfa Ojiza ijodi misolida ko'rib o'tilgan. Zero, unda so'z, vokal, raqs bir-biriga sintez qilinganligi uchun bitta to'ydagi chiqishning o'zi yaxlit spektakl shakliga yaqinlashadi.

Ikkinchi bob **"Musiqali dramada ijrochilik an'analari"** deb nomlanib, ikki bo'limdan iborat. Unda an'anaviy teatrning qiziqchi va masxarabozlik, xalfalik san'ati turlaridagi boy teatr zaxirasi alohida ijodkorlar faoliyati misolida kuzatilib, aktyorlik ijrosi va sahna san'atiga ta'siri masalalari o'rganilgan.

Ikkinchi bobning birinchi bo'limi **"Milliy musiqali drama aktyorlik san'ati an'alarining shakllanishi"** deb nomlangan. Unda aktyorlik san'ati, xususan, musiqali drama ijrochilik an'analari shakllanishida milliy teatr asoschilari bo'lmish Hamza va Mannon Uyg'ur faoliyati katta o'rin tutganligi o'rganilgan. An'anaviy teatr negizida yevropacha usulga asoslangan sahna san'atini barpo etarkan, har ikki arbob aktyor tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdi. Buning natijasi o'laroq, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Abror Hidoyatov, Ma'suma Qoriyeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova kabi xalq iste'dodlari mahorati charxlanib, milliy musiqali drama aktyorligi yo'nalishiga asos solindi.

Mazkur bo'limda Halima Nosirova, Tursunoy Ja'farovanning Halima, Muhiddin Qoriyoqubov, Abror Hidoyatovning Ne'mat ("Halima" G'.Zafariy, T.Jalilov, rej. M.Uyg'ur), Lutfixonim Sarimsoqovanning Maysara, Soyib Xo'jayevning Mullado'st ("Maysaraning ishi" Hamza, rej. M.Miroqilov va B.Xo'jayev) shuningdek, S.Xo'jayevning Toshbolta ("Toshbolta oshiq" H.G'ulom, M.Leviyev, rej. R.Hamroyev) obrazlari tahlil qilingan. Ular orqali milliy musiqali drama aktyorlik san'ati an'alarining shakllanishi va taraqqiy etishida xalq badiiy ijodiyotining o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

"Yigirmanchi yillarda, musiqali dramaga poydevor solinayotgan bir davrda bu janrda ikki yo'nalish belgilandi: biri – Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan G'ulom Zafariy boshlab bergan zamonaviy musiqali drama; ikkinchisi – Xurshid boshlagan afsonaviy mavzudagi musiqali drama. Mazkur yo'nalishlar janrning ham dramaturgiyadagi, ham musiqadagi, ham teatrdagi barcha taraqqiyot bosqichlarida

ko‘zga tashlanib turdi”⁹. Bu yo‘nalishlar ijro san‘atida munosib shakl topish, milliy kuylar va maqom ohanglarini sahna asariga moslashtirish va musiqali insenirovkalardan boshlangan so‘z va ohang badiiy sintezini takomillishtirish ustida izlanishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur turlarning rivojlanishi keyinchalik o‘zbek aktyorlik maktabi bunyod etilishida va shuningdek, ijrochilik san‘ati uch asosiy yo‘nalishini shakllanishida ahamiyatli bo‘ldi.

Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi etnografik truppa ko‘plab xalq ijodkorlari, taniqli hofizlarni professional sahnaga jalb qildi. Xalq laparlari, aytishuvlar, turli termalar, marosim folklori namunalari aynan mana shu teatrdan sahnaviy talqin topdi. M.Qoriyoqubov truppasida xalq badiiy madaniyati namunalarini sayqallash, yangicha ohang berish, ularni o‘zaro bog‘lab, dasturlar yaratilishi ortidan “sahnaviy qo‘shiq, sahnaviy raqs, sahnaviy kuy, sahnaviy lapar, sahnaviy qiziqchilik maydonga keldi”¹⁰. Xalq badiiy ijodi asarlari jumladan, yalla, lapar, raqslarni sahnaviy shaklini yaratish, teatrlashtirish va bunda drammatizm, hissiyotlilik, obrazli ijroga urg‘u berilishi o‘z navbatida musiqali drama yo‘nalishiga yaqinlashdi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Xalq badiiy ijodiyoti namunalarining musiqali drama aktyorligi san‘atiga ta’siri”** deb nomlangan. Unda o‘zbek aktyorlik san‘atining rivojiga xizmat qilgan bir necha aktyorlar ijodi ko‘rib chiqildi. Jumladan, Mashrab Yunusov, Ma‘murjon Uzoqov, Jamol G‘iyosov, Mahmudjon G‘ofurov hamda Murodjon Ahmedovning Tohir, Tursunoy Ja‘farovanning Zuhra (“Tohir va Zuhra” S.Abdulla, T.Jalilov, rej. A.Azimov va A.Bakirov), Sultonposhsha Rahimova, Onabibi Ochilova, Shirin Ramazonovalarning Shohsanam (“Oshiq G‘arib va Shohsanam” A.Bobojon, A.Otajonov, R.Ollaberganov, rej. R.Shokirov) obrazlarini yaratishdagi aktyorlik izlanishlari tahlil qilindi.

Musiqali drama aktyorligi shakllanishidagi eng muhim komponent bu – ijro uslubi yaratish edi. Taniqli hofizlar, turli darajada kuylovchi ijrochilar, xalq qiziqchilik va masxarabozlik san‘atini o‘zlashtirgan ijodkorlar ko‘p bo‘lgani holda ularni teatr talablari, musiqali drama sahna madaniyatiga moslashishlari nihoyatda murakkab kechdi.

Musiqali drama ijro uslubi borasidagi izlanishlar spektakldan-spektaklga shakllanib, o‘tib bordi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot, xalq badiiy ijodkorligi, an‘anaviy teatr vositalari bu borada nihoyatda qo‘l keldi. “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Alpomish”, “Ravshan va Zulxumor”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” singari xalq epik ijodiyoti, mumtoz adabiyotga ko‘chgan namunalaridan oziqlangan spektakllar milliy musiqali drama san‘ati qolaversa, aktyorlik uslubi shakllanishida katta o‘rin tutdi. Ushbu spektakllar musiqali drama uchun temp-sur‘at asosiy o‘rinda turishini, kuylovchi aktyorning sahnadagi xatti-harakati ana shu sur‘atga muvofiq ekanligini ifoda qildi.

Ijodkorlarning, asosan, xalq badiiy an‘analarida shakllangani, sahna san‘ati haqidagi bilim va ko‘nikmalar yetarli emasligi dastabki yillar musiqali dramalarida sezilib turdi. Musiqali drama asarida aktyor obraz ichida turib yashar ekan, dramatik va

⁹ Qodirov M. O‘zbek teatri an‘analari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – B. 293.

¹⁰ Qodirov M. O‘zbek teatri an‘analari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – B. 350.

ovoz imkoniyatini o‘zaro muvofiqlashtirishi, ayni paytda bu ijroda tabiiy kechishi talab qilinadi. Bunga esa teatr sahnasida muayyan tajriba orttirish orqali erishilgan.

Xalq badiiy merosidan oziqlangan ijrochining tomoshabinni his qilish, badihago‘ylik, ijodkorlik qobiliyati, mimika, plastika, kuylash iqtidori, badiiy so‘z mahoratini egallaganligi uning teatr xususiyatlari va bevosita musiqali drama qonuniyatlarini o‘zlashtirishiga yordam berdi. Ayni chog‘da har ikki san‘at o‘rtasidagi umumiylikdan tashqari bir-biridan farqli jihatlarni puxta o‘rganish katta mahorat talab qiladi. Milliy musiqali drama aktyorlik san‘ati xususiyatlari xalq badiiy madaniyati bilan birga professional sahna ijrochiligi oldiga qo‘yilgan talab va ustuvor nazariy qonuniyatlar asosida shakllangan. 30-yillardan boshlangan jarayon natijasi o‘laroq, musiqali drama san‘ati va undagi ijrochilik madaniyati tamoyillari ishlab chiqildi. Mazkur masalalar dissertatsiyada alohida spektakllar tahlili orqali yoritilgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Zamonaviy musiqali teatr aktyorlik san‘atida vorisiylik”** deb nomlangan. Istiqolning dastlabki yillarida ma‘naviyatga qaratilgan e‘tibor xalq og‘zaki poetik ijodi, undagi milliy qahramonlar talqinini yaratish masalalariga diqqatni kuchaytirdi. Garchi bu borada o‘zbek teatrining muayyan an‘analari shakllangan bo‘lsa-da, yangi davr ularning mazmun-mohiyatini kengaytirdi. Milliy g‘oya va qadriyatlarni targ‘ib etuvchi xalq madaniyatining rivoyatlar, dostonlar kabi mifo-epik qatlamiga asoslangan spektakllar o‘zbek teatri mavzulari ko‘lamini, qolaversa, badiiy qiyofasini belgilashda muhim o‘rin tutdi.

Bobning birinchi bo‘limi **“Musiqali teatr aktyorlik san‘atida yangi tendensiyalarning yuzaga kelishi”** deb nomlangan. So‘nggi yillarda xalq badiiy madaniyatidan oziqlangan asarlarga murojaat etishda yangi estetik tafakkur, mantiqiy mushohadaga asoslanish tamoyili kuchaydi. “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Halima” musiqali dramalari, “Olma pishganda keling” musiqali komediyasidek ilgari murojaat etilgan asarlarga yangicha rejissyorlik yondashuvlari kuzatildi.

